# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2023-YIL — INSONGA E’TIBOR VA SIFATLI TA’LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2023-yil 27-sentabr, № 202 (8545) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


## “BYD” KOMPANIYASINING MAMLAKATIMIZDA AVTOMOBILLAR ISHLAB CHIQARISHNI TO‘LIQ YO‘LGA QO‘YISH REJALARI QO‘LLAB-QUVVATLANDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-sentabr kuni Xitoyning yetakchi “BYD” kompaniyasi prezidenti va asoschisi Van Chuanfu boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.**

Ta’kidlash joizki, “BYD” kompaniyasi zamonaviy elektromobillar va yangi avlod akkumulyator batareyalarini ishlab chiqarish sohasida global yetakchi hisoblanadi. Bir yilda 2 million dona mashina ishlab chiqaruvchi ushbu konsern dunyo avtomobil sanoati rivojlanishining asosiy tendensiyalarini belgilab bermoqda.

Uchrashuvda kompaniyaning O‘zbekistondagi faoliyatini kengaytirishning amaliy jihatlari, xususan, Jizzax viloyatida gibrid va elektr avtomobillar ishlab chiqarishni tez fursatda yo‘lga qo‘yish hamda keyingi bosqichlarda uning quvvatini 300 ming donaga yetkazish masalalari ko‘rib chiqildi.

Mahsulot tannarxini kamaytirish uchun butlovchi va ehtiyot qismlarini mahalliylashtirish loyihalariga hamda avtomobillarni uchinchi mamlakatlar bozoriga eksport qilishni tashkil etishga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, mamlakatimizga “BYD” elektrobuslarini yetkazib berish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha muhandislik-servis markazlarini ochish rejalari qo‘llab-quvvatlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

## O‘ZBEKISTON PREZIDENTI QIRG‘IZISTON BILAN PARLAMENTLARARO ALOQALARNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGINI TA’KIDLADI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turgan Qirg‘iz Respublikasi Jogorku Keneshi Torag‘asi Nurlanbek Shakiyevni qabul qildi.**

O‘zbekiston bilan Qirg‘iziston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va keng ko‘lamli strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Qirg‘iziston parlamenti raisi davlatimiz rahbariga Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Suhbatda ikki tomonlama hamkorlik bugun yuksak darajaga chiqqani va sermahsul bo‘layotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Xususan, turli darajalarda faol muloqot va almashinuvlar olib borilmoqda, tovar ayirboshlash va yuk tashish hajmi ortmoqda, kooperatsiya loyihalari, shu jumladan, qo‘shma jamg‘arma investitsiyalarini jalb qilgan holda amalga oshirilmoqda.

Ko‘p qirrali munosabatlarni kengaytirish, oliy darajada erishilgan kelishuvlarni ro‘yobga chiqarish va istiqbolli loyihalarni ilgari surish, hududlar va ishbilarmonlar darajasida amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda mamlakatlarimizda madaniy-gumanitar tadbirlarni o‘tkazishda yaqin parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega ekani qayd etildi.

Ixtisoslashtirilgan xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik va o‘zaro muvofiqlashuvni kuchaytirish muhim ekani ta’kidlandi.

**O‘zA.**

## MAHALLA TIZIMINI YANADA KUCHAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 26-sentabr kuni mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.**

Mamlakatimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar aholi talabidan kelib chiqib, joylarda amalga oshirilmoqda. Buning uchun mahallalarga ko‘plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berildi. Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat “beshlik tizimi” tashkil etildi.

Lekin ularning o‘zaro muvofiq ishlashida kamchiliklar, juda ko‘p takrorlanishlar bor. Ijtimoiy maqsaddagi mablag‘lar ba’zan samarasiz yo‘naltirilyapti. Ehtiyojmand aholining masalasini hal qilish viloyat va respublika idorasiga bog‘lanib qolgan. Mahalla xodimlari faoliyatini baholash mezoni yo‘q. Ularning ko‘p vaqti “qog‘oz to‘ldirish” va majlislarga ketyapti.

Yig‘ilishda shu kabi kamchiliklar tahlil qilinib, tizimni takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha yangi yondashuvlar belgilandi.

Unga ko‘ra, endi mahalla boshqaruviga soliqchi va ijtimoiy xizmat xodimi ham qo‘shilib, “mahalla yettiligi” bo‘ladi.

Ehtiyojmand aholini ro‘yxatga kiritish, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi 70 dan ortiq masalalar, tuman va viloyat idoralariga chiqmasdan, mahallaning o‘zida jamoaviy hal qilinadi. Shuningdek, Bandlik, Tadbirkorlik va Kasanachilik jamg‘armalari mablag‘lari har bir mahallaga taqsimlab beriladi.

Mahallada qulay va elektron ish yuritish yo‘lga qo‘yiladi. Amaldagi uchta platforma — “Onlayn mahalla”, “Xotin-qizlar”, “Yoshlar portali” o‘zaro integratsiya qilinib, yagona tizimda mujassamlashtiriladi.

“Mahalla yettiligi” ishini muvofiqlashtirishda mahalla raislarining vakolatlari kengaytiriladi. Jumladan, ular hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xodimni rag‘batlantirish yoki intizomiy jazo qo‘llash bo‘yicha taqdimnoma kiritish vakolatiga ega bo‘ladi.

Shulardan kelib chiqib, mutasaddilarga “mahalla yettiligi”ning vazifalarini aniq belgilash va faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Ijtimoiy loyihalarga ilmiy va nodavlat tashkilotlarni ham jalb qilish muhimligi aytildi.

Yig‘ilishda mahalla tizimini takomillashtirishning tashkiliy choralari ham belgilandi. Xususan, mahallalarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha respublika, viloyat va tuman (shahar) kengashlari joriy etiladi. Respublika kengashiga — Bosh vazir, hududiy kengashlarga esa hokimlar rahbarlik qiladi. Kengashlar “mahalla yettiligi” qo‘ygan masalalarga yechim topadi, moliyaviy manbalarini hal qilib beradi.

Mas’ullarga muhokamada bildirilgan barcha takliflarni inobatga olgan holda sohaning tashkiliy tuzilmasi, vakolatlari va moliyalashtirish manbalari ko‘rsatilgan hujjat loyihasi ishlab chiqish topshirildi.

— Biz faoliyatimizning birinchi kunlaridan hamma ishni mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilib kelyapmiz. Bu tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirdik. Endi yana qo‘shimcha kuch, imkoniyatlar berilyapti. Bu ham vakolat, ham mas’uliyat degani. Mahallalar — davlatimizning eng katta zamini, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig‘ilish so‘ngida vazirlar va hokimlar, joylardan mahalla raislari ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar va yangi topshiriqlardan kelib chiqib kelgusidagi ish rejalari bo‘yicha axborot berdi.

**O‘zA.**

**Muloqot**

## STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI RIVOJLANMOQDA

*Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo‘lib turgan Qirg‘iz Respublikasi Jogorku Keneshi Torag‘asi Nurlanbek Shakiyev boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.*

Suhbat avvalida O‘zbekiston bilan Qirg‘iziston o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlari jadal rivojlanib borayotgani alohida qayd etildi. Qardosh xalqlarimiz o‘rtasidagi ko‘p asrlik do‘stlik hamda yaxshi qo‘shnichilik rishtalariga asoslangan O‘zbekiston — Qirg‘iziston hamkorligining amaliy jihatlariga e’tibor qaratildi.

Ikki mamlakat parlamentlari o‘rtasidagi, jumladan, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi aloqalar izchillik kasb etib borayotir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hamda Qirg‘iz Respublikasi Jogorku Keneshi o‘rtasida imzolangan parlamentlararo hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum ushbu yo‘nalishdagi munosabatlarda yangi bosqichni boshlab berdi.

Muzokara chog‘ida parlamentlarimiz hamkorligini yanada kuchaytirish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va imzolash, chegaraoldi viloyatlar mahalliy Kengashlari deputatlari o‘rtasida hamkorlikni faollashtirish, parlament diplomatiyasini rivojlantirishga qaratilgan qo‘shma tadbirlarni o‘tkazish yuzasidan fikr almashildi.

2

**Senat yalpi majlisi oldidan**

## YUQORI PALATA QO‘MITALARIDA DOLZARB QONUNLAR KO‘RIB CHIQILDI

*Xabar berilganidek, Oliy Majlis Senatining navbatdagi yalpi majlisida mamlakat taraqqiyotiga daxldor qonunlar bilan birga, bugungi kunning dolzarb masalalari ham muhokama qilinishi ko‘zda tutilgan. Shu munosabat bilan parlament yuqori palatasi qo‘mitalari yig‘ilishlari o‘tkazilib, ularda ushbu masalalar dastlabki tarzda ko‘rib chiqildi.*

### Ochiqlikni ta’minlash borasidagi ishlar qay ahvolda?

Senatning Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash masalalari qo‘mitasi majlisida dastlab senatorlar “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining yaxlit tizimi shakllantirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonunni chuqur tahlildan o‘tkazdi.

Ta’kidlanganidek, mazkur qonunga asosan respublika ijro hokimiyati tizimi vazirliklar, qo‘mitalar, agentliklar va inspeksiyalarni o‘z ichiga olgan yaxlit tizim sifatida tashkil etilganligi sababli amaldagi qonun hujjatlaridan “davlat qo‘mitalari” tushunchasi chiqarib tashlanmoqda va islohotlar doirasida tegishli o‘zgartirishlar kiritilyapti.

Ushbu qonun bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risidagi axborot jumlasiga vazirliklar va idoralarning byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilishi to‘g‘risidagi, shuningdek, xarajatlar iqtisodiy tasnifining moddalari kesimida mablag‘larning sarflanishi haqidagi ma’lumotlar kiritilib, ularni o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borishi lozimligi belgilab qo‘yilmoqda.

3

**Parlament diplomatiyasi**

## HAMKORLIK YUQORI BOSQICHGA OLIB CHIQILADI

*Kecha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilovning Qirg‘iz Respublikasi Jogorku Keneshi Torag‘asi Nurlanbek Shakiyev boshchiligidagi delegatsiya a’zolari bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.*

Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston va Qirg‘iziston yaqin qo‘shnilar, vaqt sinovidan o‘tgan hamkorlardir. Ikki davlat rahbarlari o‘rtasidagi samimiylik, o‘zaro ishonch aloqalarga yangicha ruh bag‘ishlamoqda. O‘zaro munosabatlarning bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgani, mamlakatlarimiz o‘rtasida siyosiy va iqtisodiy sohadagi muloqotlarning faollashgani parlamentlararo hamkorlikni yanada chuqurlashtirish hamda kengaytirishda ham muhim omil bo‘lmoqda.

Muloqot chog‘ida delegatsiya a’zolariga “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar, uning doirasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, shuningdek, Qonunchilik palatasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari haqida ma’lumot berildi.

Konstruktiv va o‘zaro ishonch ruhida o‘tgan suhbatda O‘zbekiston — Qirg‘iziston o‘rtasidagi parlamentlararo aloqalarni kengaytirish va uni yangi mazmun bilan boyitish, norma ijodkorligi sohasida tajriba almashish masalalari muhokama qilindi.

O‘z navbatida, Qirg‘iziston parlamenti rahbari N. Shakiyev so‘nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi va yuksak siyosiy irodasi bilan O‘zbekiston Respublikasi bilan Qirg‘iz Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlar sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilganini alohida ta’kidladi. Shuningdek, amaliy ruhdagi uchrashuvlarni izchil davom ettirish, parlamentlararo hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash ikki tomon manfaatlariga birdek xizmat qilishini qayd etdi.

Shu bilan birga, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlik, transport-kommunikatsiya, turizm, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi aloqalar ko‘lami tobora kengayib borayotgani xususida ham so‘z yuritildi.

Samimiy va do‘stona ruhda o‘tgan uchrashuvda tomonlar hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqishga kelishib oldi.

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Parlament axborot markazi.**

## BUYUK BRITANIYA PARLAMENT DELEGATSIYASI BILAN UCHRASHUV

*Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o‘rinbosari Sodiq Safoyev Parlamentlararo Ittifoqdagi Britaniya guruhi raisi Karen Bredli boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.*

Muloqot chog‘ida O‘zbekiston va Buyuk Britaniya siyosiy-diplomatik muloqotini kengaytirish, parlament diplomatiyasini faollashtirish, xalqaro maydonda konstruktiv hamkorlikni davom ettirish hamda savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va tovar ayirboshlash hajmini oshirish yuzasidan fikr almashildi.

Jumladan, Buyuk Britaniya O‘zbekistonga “UK GSP Enhanced Framework” umumiy imtiyozlar tizimi bo‘yicha benefitsiar mamlakat maqomini taqdim qilganiga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu tizim bo‘yicha o‘zbek tovarlariga imtiyozlar 2021-yil 1-noyabrdan boshlab qo‘llanilyapti. Natijada 2022-yilda O‘zbekistondan Buyuk Britaniyaga eksport hajmi 35 foizga oshdi.

Imtiyozlar tizimi afzalliklaridan samarali foydalanish savdo-iqtisodiy aloqalarni hamda ishbilarmon doiralar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilishiga alohida urg‘u berildi.

2

Aks sado

# TINCHLIK VA TARAQQIYOT YO‘LIDAGI TASHABBUSLAR

*Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi nutqi yurtdoshlarimizda zo‘r qiziqish, yuksak faxr tuyg‘usini uyg‘otdi. Ushbu voqelik, shubhasiz, mamlakatimizning xalqaro munosabatlarda teng huquqli davlat sifatidagi roli va o‘rnini yanada oshirdi.*

*Quyida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti qoshidagi “Sharqshunos tahlilchilar” intellektual klubi a’zolarining bu borada bildirgan fikrlari bilan tanishasiz.*

## Bashariyat taqdiriga daxldor

**Suhrob BO‘RONOV,**
**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,**
**ciyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD):**

— Jahon maydonida sodir bo‘layotgan geosiyosiy qarama-qarshiliklar, “bloklarga mansublik” stereotiplarining qayta tug‘ilish xavfi hamda davlatlararo ishonchsizlik jarayonlarining kuchayib borishi zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining izdan chiqishiga olib kelmoqda. Ushbu haqiqatni chuqur anglash, global muammolarni konstruktiv muloqot va ko‘p tomonlama hamkorlik asosida hal etish bashariyat oldida turgan dolzarb vazifadir. Shu bois O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti o‘laroq, global va mintaqaviy muammolarning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan pragmatik taklif va tashabbuslarni BMT minbaridan ilgari surmoqda.

Birgina misol. Prezidentimiz 2017 — 2022-yillarda BMTning yuksak minbaridan ilgari surgan 6 ta tashabbus qisqa muddat ichida jahon hamjamiyati tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlandi. Bular: “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash to‘g‘risida”; “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik”; “Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish”; “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish to‘g‘risida”; “Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash”; “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyalardir.

Ko‘rinib turganidek, besh yil muddat ichida hech bir davlatning bu qadar ko‘p sonli tashabbuslari BMT tomonidan qo‘llab-quvvatlangan emas. Bu — BMT tarixidagi rekord ko‘rsatkich hisoblanadi. Bundan tashqari, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so‘zlagan nutqida ham tinchlik, birdamlik va farovonlikka da’vat etuvchi bir qator tashabbuslar o‘rtaga tashlandi. Xususan, “Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida “Ijtimoiy himoya: barqaror taraqqiyot sari yo‘l” butunjahon konferensiyasini o‘tkazish, Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etish, O‘zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o‘tkazish, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining Suv resurslari bo‘yicha maxsus vakili lavozimi ta’sis qilinishi, Markaziy Osiyo iqlim muloqotini joriy etish, “Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo‘lida hamjihatlik” rezolyutsiyasini qabul qilish, O‘zbekistonda YUNESKO shafeligida Dinlararo muloqot va bag‘rikenglik xalqaro markazini tashkil etish, O‘zbekistonda “Islom — tinchlik va ezgulik dini” mavzuida xalqaro konferensiya o‘tkazish tashabbuslarini shular sirasiga kiritish mumkin.

Umuman, Prezidentimiz tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida ilgari surilgan o‘ndan ortiq tashabbuslar bashariyat taqdiriga bevosita daxldor dolzarb masalalarni qamrab oladi. Bu tashabbuslar amaliy ijrosi jahon hamjamiyatining global muammolar girdobidan chiqishi va samarali xalqaro birdamlik jarayonlarini qayta tiklashi uchun yaqindan ko‘mak beradi, deb ishonamiz.

## Markaziy Osiyo birdamligi yo‘lida

**G‘ayratjon JUMAYEV,**
**Universitetning stajyor-tadqiqotchisi:**

— Markaziy Osiyo mintaqasi fundamental o‘zgarishlar arafasida turibdi. O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblangan Markaziy Osiyoda ahil qo‘shnichilik, birodarlik hamda do‘stlik muhitining shakllanishida bevosita O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev fenomeni nihoyatda katta rol o‘ynaydi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan o‘tkazib kelinayotgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi muntazam tusga kirgani, o‘z navbatida, mintaqaning yaxlit makon ekanligini o‘zida ifoda etayotgan umumiy sakkizta “Markaziy Osiyo+” formatlarining tashkil topishi, mintaqa mamlakatlarining umumiy ichki mahsuloti 40 foizga ko‘payib, o‘zaro tovar aylanmasi 2,5 barobardan oshgani buning yaqqol tasdig‘idir.

Davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida ham Markaziy Osiyo mintaqasiga alohida e’tibor qaratdi. Kontent tahlil etilganda jami 12 marotaba “Markaziy Osiyo” so‘zi nutqda qo‘llanildi. Mintaqaning barqarorligi va taraqqiyotiga g‘ov bo‘layotgan dolzarb muammolarni hal etishga doir o‘nga yaqin taklif va tashabbuslar bildirildi. Markaziy Osiyoni tinch va gullab-yashnayotgan hududga aylantirish O‘zbekiston tashqi siyosatida bundan buyon ham ustuvor maqsad bo‘lib qolishi alohida ta’kidlandi.

Shuning o‘ziyoq O‘zbekiston Markaziy Osiyo birdamligi yo‘lida ilg‘or va tashabbuskor davlat bo‘lganidan dalolat beradi.

## Globallashayotgan iqlim muammosi

**Farangiz TOLIPOVA,**
**universitet talabasi:**

— Global iqlim o‘zgarishi bilan jahonda suv resurslari tanqisligi ham oshib bormoqda. Yer kurrasidagi suvning 96 foizini okean va dengizlarning sho‘r suvi, atigi 3 foizini chuchuk suv zaxirasi tashkil etadi. Yaqin o‘n yil ichida dunyodagi chuchuk suv zaxirasi yana ikki barobar qisqarishi mumkin. Hozir jahondagi 80 ta mamlakatda chuchuk suv tanqis, 2 mlrd. aholi ichimlik suvi yetishmasligidan aziyat chekmoqda.

Markaziy Osiyo esa aholisi tez o‘sib borayotgan va ayni paytda, suv zaxiralari cheklangan mintaqadir. Modomiki, suv muammosi globallashib borar ekan, uni hal etishni kelajak avlodlarga qoldirmaslik haqida so‘z yuritishga jiddiy asoslar talaygina. Ayniqsa, davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida ma’lum qilganidek, “Orol dengizi fojiasiga qarshi kurashni davom ettirayotgan Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanmoqda”.

Darhaqiqat, Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etishda jahon hamjamiyatining qo‘llab-quvvatlashi juda muhimdir. Shu sababdan BMT Bosh kotibining Suv resurslari bo‘yicha maxsus vakili lavozimi ta’sis etilishi global suv muammolarini hal qilish yo‘lidagi sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasini yaratish jarayonida “Birlashgan Millatlar Tashkiloti — suv resurslari” mexanizmini ishga solish taklifi mintaqaning suv muammolariga qarshi preventiv choralar ko‘rish imkonini beradi.

O‘z navbatida, O‘zbekiston Prezidentining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo‘lida hamjihatlik” rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi xalqaro hamjamiyatni mintaqaviy iqlim xavf-xatarlarini birgalikda bartaraf etishga chorlaydi. Zero, eng avvalo, turli mintaqalarda kuzatilayotgan iqlim xavfining oldini olmay, global iqlim o‘zgarishi muammolariga qarshi kurashib bo‘lmaydi.

## Inson kapitalini rivojlantirish va yosh avlod tarbiyasi

**Zilola AHMEDOVA,**
**universitet talabasi:**

— Markaziy Osiyo tobora yosharib borayotgan mintaqalardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining so‘nggi hisob-kitoblariga ko‘ra, Markaziy Osiyoning hozirgi aholisi soni 78 million 412 mingdan ko‘proqni tashkil etadi. E’tiborlisi, ularning 50 foizdan ziyodi esa aynan yoshlardan iboratdir.

Xususan, O‘zbekiston misolida qaraganda ham mamlakat aholisining 60 foizdan ortig‘ini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil qilishini ko‘rish mumkin. Demak, yaqin davr mobaynida ushbu qatlam mintaqa kelajagiga katta ta’sir ko‘rsatishga qodir, uning ravnaqi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oluvchi eng asosiy ishchi kuchiga aylanadi. Shuni chuqur anglagan holda bugun mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish, kreativ, yuksak salohiyatli yosh avlodni yetishtirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bu borada amalga oshirilgan ishlar samarasi sifatida birgina yurtimizda yoshlarni oliy ta’limga qamrab olish darajasi 9 foizdan 38 foizga oshganini keltirish mumkin.

Ta’kidlash muhim bo‘lgan yana bir jihat, bugun axborot oqimi keskin kuchaygan bir davrda ekstremizm tarqalishi va yoshlarning radikallashuviga yo‘l qo‘ymaslik, mintaqa kelajagi va xavfsizligini ta’minlash, o‘zaro integratsiyalashuv jarayonlarini yanada samarali va izchil amalga oshirishda yoshlarni birlashtira oluvchi, ular salohiyatini ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi jahon tajribasiga asoslangan dastur yaratishga katta ehtiyoj sezilmoqda.

Shu o‘rinda, Prezidentimizning Bosh Assambleya 78-sessiyasidagi nutqida ilgari surilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etish va uning doirasida “Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi — 2030” dasturini ishlab chiqish tashabbusi ayni muddao bo‘ldi. Bu dastur, o‘z navbatida, mintaqamiz davlatlari tomonidan yaqinda imzolangan Yoshlar siyosatining umumiy yo‘nalishlari haqidagi bitim samaradorligini oshirish, BMT va uning ixtisoslashtirilgan tuzilmalari bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda boshqa mintaqalarning ilg‘or tajriba va yutuqlarini o‘zlashtirgan holda ularni muvaffaqiyatli amaliyotga tatbiq etishga zamin yaratadi, deb umid qilamiz.

## Afg‘oniston masalasini hal etishda o‘ziga xos yechim

**Sardor RAHIMOV,**
**universitet talabasi:**

— Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida yuz berayotgan qurolli ziddiyatlar fonida Afg‘onistondagi vaziyat xalqaro hamjamiyat e’tiboridan chetda qolganday. Ammo bu — mojaro o‘z keskinligi va global miqyosdagi jiddiyligini yo‘qotdi, degani emas. Afg‘onistondagi vaziyat hali ham strategik mavhumligicha qolmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Afg‘onistonning yaqin qo‘shnisi sifatida yaqin o‘tgan vaqtlar davomida ushbu mamlakatdagi og‘ir vaziyatning barqarorlashuvi uchun o‘zining amaliy hissasini qo‘shib kelmoqda. Buning yorqin misoli sifatida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so‘zlagan nutqida dunyo hamjamiyatini yana bir bor afg‘on muammosiga befarq bo‘lmaslikka chaqirganligida ko‘rishimiz mumkin.

Prezidentimiz Afg‘onistonni o‘z muammolari bilan yolg‘iz qoldirish katta xato bo‘lishini, uni yakkalab qo‘yish va sanksiyalar qo‘llash oddiy afg‘on xalqining ahvolini yanada og‘irlashtirishini ma’lum qilar ekan, insonparvarlik yordami ko‘rsatishni susaytirmaslik lozimligini alohida ta’kidladi. Jumladan, davlatimiz rahbari tomonidan ko‘tarilgan Afg‘onistonning muzlatilgan xalqaro aktivlarini ushbu o‘lkadagi o‘tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga yo‘naltirish uchun maqbul mexanizmlar ishlab chiqish kabi da’vatlar nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro xavfsizlikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Shuningdek, jafokash afg‘on xalqini og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy tanazzuldan olib chiqishda xalqaro hamjamiyat ko‘magi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, davlatimiz rahbari tomonidan ko‘tarilgan afg‘on muammosi va uning yechimlari ushbu mamlakatdagi yangi vaziyat bo‘yicha o‘ziga xos yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etayotgani ayni haqiqat.

**“Xalq so‘zi”.**

## STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI RIVOJLANMOQDA

1

Shuningdek, siyosiy muloqot va madaniy-gumanitar almashinuvni hamda savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish masalalari ham e’tibor markazida bo‘ldi. Mamlakatlar o‘rtasida savdo hajmini 2 mlrd. dollarga yetkazish uchun yetarli salohiyat hamda imkoniyatlar mavjudligi alohida qayd etildi.

Muloqot davomida ikki davlat transport-logistika imkoniyatlarini kengaytiradigan loyihalarni amalga oshirishda sa’y-harakatlarni birlashtirish, Toshkent va Bishkek shaharlarida savdo uylarini ochish kabi amaliy jihatlar muhokama qilindi.

Tomonlar ikki qardosh xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirishda madaniy-gumanitar aloqalar alohida o‘rin tutishini e’tirof etdi. O‘sh shahrida Bobur nomidagi akademik teatrning yangilangan binosi ochilgani, nafaqat qirg‘iz eli, ayni paytda butun turkiy xalqlar uchun ham qadrli bo‘lgan mashhur yozuvchi Chingiz Aytmatovning 95 yilligi bilan bog‘liq qator tadbirlar O‘zbekistonda ham o‘tkazib kelinayotgani aytib o‘tildi.

Uchrashuv yakunida o‘zaro yaqin hamkorlikka va tajriba almashishga, turli darajadagi parlament delegatsiyalarining tashriflarini muntazam tashkil etishga, shuningdek, O‘zbekiston va Qirg‘iziston parlamentlari do‘stlik guruhlari hamda qo‘mitalari o‘rtasidagi aloqalarni faollashtirishga kelishib olindi.

Qirg‘iz Respublikasi Jogorku Keneshi Torag‘asi Nurlanbek Shakiyev Oliy Majlis Senatining faxriy mehmonlar kitobida dastxat yozib qoldirdi.

## BUYUK BRITANIYA PARLAMENT DELEGATSIYASI BILAN UCHRASHUV

1

O‘zbekistonning yaqin kelajakda Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishi bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar ham muhokama qilindi. Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston Buyuk Britaniyaning yirik korporatsiya hamda kompaniyalarini mamlakatda tog‘-kon sanoati, neft-gaz, telekommunikatsiya, infratuzilma, fintech, farmatsevtika va ta’lim kabi sohalarda loyihalarni amalga oshirishidan manfaatdor.

Tomonlar O‘zbekiston va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi parlamentlararo aloqalar izchil rivojlanayotganidan mamnunlik izhor qildi. Ayni chog‘da o‘zaro aloqalar hamda yaqin muloqotni mustahkamlash uchun ikki mamlakat parlamentlari a’zolarining tashriflarini faollashtirish zarurligiga e’tibor qaratildi.

Bundan tashqari, ikki mamlakat o‘rtasidagi ta’lim va madaniy-gumanitar aloqalar sohasida hamkorlik qilish masalalari muhokama etildi. Ma’lumki, hozirgi vaqtda Buyuk Britaniyaning yetakchi institutlari bilan kelishilgan holda ilmiy izlanishlar olib borish, mutaxassislarni qayta tayyorlash, qo‘lyozma va artefaktlar bilan ishlash bo‘yicha faol hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Uchrashuv yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston hamda Buyuk Britaniya o‘rtasidagi ko‘p qirrali aloqalarni kengaytirishga kelishib olindi.

**“Xalq so‘zi”.**

Qisqa satrlarda

## QONUNCHILIK PALATASIDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasi raisi Dilorom Fayziyeva hamda bir guruh deputatlarning Parlamentlararo Ittifoqdagi Britaniya guruhi delegatsiyasi a’zolari bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Muloqot davomida tomonlar O‘zbekiston va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi aloqalar izchil rivojlanayotganini qayd etib, parlamentlararo hamkorlikni yanada taraqqiy ettirish istiqbollari xususida fikr almashdi.

Uchrashuv yakunida qonun ijodkorligi sohasidagi istiqbolli jihatlarni o‘rganish bo‘yicha hamkorlikni yanada kuchaytirishga kelishib olindi.

* * *

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasining navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda deputatlar tomonidan “Respublika byudjetidan ajratiladigan mablag‘lardan foydalanish hamda rivojlantirish dasturlari maqsadli indikatorlarining 2023-yil uchinchi chorakdagi ijrosi to‘g‘risida”gi masala yuzasidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining axboroti eshitildi.

Eshituv davomida deputatlar vazirlik tomonidan sarflangan mablag‘lar maqsadli va manzilli amalga oshirilganligini alohida e’tirof etgan holda bu borada bir qator takliflar berdi.

Yig‘ilish yakunida kun tartibidagi masala yuzasidan qo‘mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

**Parlament axborot markazi.**

«Yoshlar daftari»:

# YANGI IMKONIYATLAR VA KOMPLEKS YONDASHUV

*Mamlakatimizda ertangi kunimiz egalari — yoshlarning doim izlanish va intilishda bo‘lishlarini qo‘llab-quvvatlash, barcha sohada o‘z iqtidori va salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur sharoit hamda imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sanaladi.*

Mushohada

Shu nuqtayi nazardan, so‘nggi yetti yilda yurtimizda yigit-qizlarga muammo emas, rivojlanishning asosiy drayveri, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi, yangi g‘oyalarning dadil tashabbuskori, xalqimizning tayanchi va suyanchi sifatida yondashilmoqda.

Yigit-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og‘ir, kam ta’minlangan oilalarning farzandlari, chin yetim va nogironligi bo‘lgan yoshlarga manzilli ko‘maklashish bo‘yicha mutlaqo yangicha tizim yaratildi.

Ular bandligini ta’minlash, muammolarini hal etish bo‘yicha “yoshlar daftari” joriy etilganki, u mazmun-mohiyatiga ko‘ra juda sodda va samarali usul ekani allaqachon isbotlandi. U berayotgan ijobiy samarani bugun yigit-qizlarimiz o‘z hayotida his etib turibdi.

Agar raqamlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, joriy yil boshidan ushbu daftarga kirish uchun 360 436 ta onlayn murojaat kelib tushgan. Shundan ijtimoiy himoyaga muhtojlarning 340 ming 440 nafari “yoshlar daftari”ga kiritilib, 243 ming 591 nafariga amaliy yordam ko‘rsatildi.

Ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj 14 ming 187 nafar yoshga 36,2 mlrd. so‘mlik asbob-uskuna va mehnat qurollari ajratilib, o‘z hududlarida doimiy ish bilan ta’minlandi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj 40 mingdan ortiq yigit-qizlarga 107,4 mlrd. so‘m miqdorda to‘lov-shartnoma xarajatlari qoplab berilib, ta’limni davom ettirish imkoniyati yaratildi.

Davolanishga ehtiyoji mavjud 26 ming 519 nafar yoshga xorij va yurtimizdagi shifoxonalarda davolanishi va zaruriy dori-darmonlar xaridi uchun 26,2 mlrd. so‘m sarflandi. Doimiy ish o‘rniga ega bo‘lmagan 6 ming 438 nafar yoshga esa 28,5 mlrd. so‘m miqdorda harbiy xizmat badali qoplab berilib, bandligi ta’minlandi.

Kam ta’minlangan, nogironligi bo‘lgan va og‘ir hayotiy vaziyatdagi 18 ming 838 nafar yigit-qizga 22,8 mlrd. so‘m miqdorda zaruriy moliyaviy ko‘mak ko‘rsatildi va qariyb 19 ming nafarining ijtimoiy ahvoli yaxshilanishiga erishildi.

Zamonaviy kasblarni egallashga hamda xorijiy tillarni o‘rganishga qiziquvchi 3 ming 24 nafar yoshga 12,3 mlrd. so‘m ajratildi. Ular “veb-dasturlash”, “dizayn”, “modeling”, “veb ilovalar yaratuvchisi” kabi kasblarga o‘qitildi.

Vatan ichra vatanli, ya’ni boshpanali bo‘lish har bir oilaning orzusi. Bu borada uy-joyga ehtiyoji bo‘lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj 746 nafar yosh oilaga 1,5 mlrd. so‘m miqdorda 1 yillik turarjoy ijara xarajatlari qoplab berilgani yurtimizda hech bir yosh davlatimizning e’tibori va g‘amxo‘rligidan chetda qolmayotganidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda bandlikni ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash masalasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, kasb-hunar egallashga ishtiyoqi yuqori 1 ming 195 nafar yoshni kasb-hunarga o‘qitish uchun 807 mln. so‘m ajratilib, ularning doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishiga erishildi. Dehqonchilik va tomorqa xo‘jaligini yuritish bilan shug‘ullanayotgan 582 nafar yoshga 807 mln. so‘mlik urug‘lik va ko‘chatlar xaridi uchun subsidiya ajratilgan holda har birining 5 — 10 mln. so‘mgacha sof daromad olishlariga ko‘maklashildi.

E’tiborli tomoni, davlatning alohida ko‘magiga muhtoj “og‘ir” toifadagilar bilan ishlash bo‘yicha 2023-yilda har bir mahallada yoshlarning balansi shakllantirilib, bu orqali 9 mln. nafar yosh uch toifaga ajratildi va ular bilan individual ishlash tizimi joriy etildi.

Albatta, mamlakatimizda yoshlar masalasiga bu darajada katta e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Zero, ularning muvaffaqiyatlari va farovonligi mamlakat taraqqiyotiga katta ta’sir qiladi. Yoshlarda g‘ayrat, ijodiy fikrlash, innovatsion g‘oyalar bor. Ularning o‘z ishiga zamonaviy yondashuvlarni qo‘llashi kelgusida raqobatbardosh iqtisodiyot yaratishga yordam beradi.

Muxtasar aytganda, ushbu daftarning hayotga tatbiq etilishi bilan ehtiyojmand, kam ta’minlangan oilalar, ijtimoiy ko‘makka muhtoj yoshlar turmush tarzida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Davlatimiz tomonidan ularga ko‘rsatilayotgan ko‘mak jamiyatimiz o‘z a’zolari haqida qayg‘urayotganidan dalolat beradi. O‘z navbatida, bu, jamiyatda ijtimoiy ong, mas’uliyat va faollikni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Shahnoza XOLMAXAMATOVA,**
**Oliy Majlis**
**Qonunchilik palatasi deputati.**

# YUQORI PALATA QO‘MITALARIDA DOLZARB QONUNLAR KO‘RIB CHIQILDI

Majlisda Transport vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlar tomonidan ochiqlikni ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlar muhokama qilinib, ayni yo‘nalishda ijobiy o‘zgarishlar bilan birga, hali bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar talay ekanligi aytildi.

Jumladan, vazirlikning 14 ta hududiy boshqarmasidan 7 tasining rasmiy veb-saytlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Xorazm, Qashqadaryo, Navoiy, Jizzax, Farg‘ona, Namangan va Toshkent viloyatlari hududiy boshqarmalari rasmiy veb-saytlari esa umuman ishlayotgani yo‘q. Shuningdek, vazirlikning tashkilotlari tomonidan o‘z rasmiy-veb saytlari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini yuritishda ma’lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish, matbuot anjumanlari, press-turlar, sohaga oid muammolarni tezkor yoritish va tanqidiy materiallarga rasmiy munosabat bildirish borasidagi ishlar talab darajasida emas.

Oqibatda hududlarda aholi tomonidan transport sohasidagi ma’lumotlarni olishda muammolar saqlanib qolmoqda va bu holat aholining haqli e’tirozlarini keltirib chiqarmoqda.

Mazkur holatlar qo‘mita majlisida atroflicha tahlil etilib, vazirlikka ushbu kamchiliklarni bartaraf etish to‘g‘risida tegishli tavsiya va takliflar berildi.

## Suvdan oqilona va samarali foydalanish zarurati

Senatning Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo‘mitasi majlisida “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga alohida to‘xtalib o‘tildi. Ushbu hujjat bilan “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi va “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunlarga o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Xususan, sun’iy suv obyektlarining suvidan maxsus foydalanish yoki iste’moli uchun ruxsatnoma suv iste’molchilari uyushmalariga, shuningdek, boshqa suvdan foydalanuvchilar va suv iste’molchilariga qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv obyektlaridan foydalanishga ruxsatnoma esa tumanlar irrigatsiya bo‘limlari tomonidan berilishi belgilanayotir. Bundan tashqari, fermer hamda dehqon xo‘jaliklari suv iste’molini tumanlar irrigatsiya bo‘limlari tomonidan belgilanadigan suv obyektlaridan har yilgi suv olish limitlari asosida boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari bilan teng huquqlarda amalga oshirishi nazarda tutilmoqda.

Qonunning qabul qilinishi suvdan oqilona va samarali foydalanish, fermer va dehqon xo‘jaliklariga suvni o‘z vaqtida uzilishlarsiz yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yig‘ilishda, shuningdek, Orolbo‘yi mintaqasida ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining axboroti ham eshitildi.

Senatorlar vazirlik tomonidan sohada bajarilgan ishlar bilan bir qatorda, ayrim muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligini qayd etishdi. Jumladan, “Orolbo‘yi tuzlaridan litiy mineralini olish” loyihasi bugungi kunda istiqbolsiz deb topilgan. Shuningdek, zudlik bilan chora ko‘rilmasa, ayrim loyihalarning belgilangan muddatlarda ishga tushishi xavf ostida qolmoqda.

Majlisda loyihalarni chuqur qayta tahlil qilish va belgilangan muddatlarda ishga tushirish choralarini ko‘rish yuzasidan mas’ullarga tavsiya va takliflar berilib, tegishli “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

## Muhokamalarga sabab bo‘layotgan hujjatlar tahlili

Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasida dastlab “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, yangilangan Konstitutsiyaga kiritilgan qoidalardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan ushbu qonun bilan Konstitutsiyaviy sud vakolatlari kengaytirildi. O‘zbekiston Respublikasi referendumiga chiqarilayotgan masalalarning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa berish va bu borada ish yuritish tartibi belgilangan. Shuningdek, Konstitutsiyaviy sud faqatgina o‘z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qonunchilik tashabbusi huquqiga ega ekanligi nazarda tutilyapti. Konstitutsiyaviy sudning sudyalari qayta saylanish huquqisiz o‘n yillik muddatga saylanishi mustahkamlanayotir.

Senatorlarning fikricha, mazkur qonunning qabul qilinishi natijasida Konstitutsiya oliy yuridik kuchga egaligidan kelib chiqib, Bosh qomus va qonunlarning so‘zsiz ustuvorligiga hamda ularning bir xilda amalda bo‘lishiga erishiladi.

Shuningdek, majlisda “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga va O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun ham ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, hujjat bilan fuqarolarning jamoat joylarida ibodat liboslarida yurganlik uchun belgilangan ma’muriy javobgarlik bekor qilinyapti. Shuningdek, milliy, irqiy, etnik yoki diniy mansubligiga qarab bir toifa fuqarolarni boshqa toifa fuqarolardan ustunligini yoki nuqsonli ekanligini targ‘ib qilganlik, nikohi qonunda belgilangan tartibda qayd etilmagan shaxslar o‘rtasida nikoh tuzishga doir diniy marosimni amalga oshirganlik, ko‘p xotinli bo‘lish hamda shaxsga nisbatan uning jinsiy mansubligiga qarab har qanday shakldagi tazyiq va zo‘ravonlik targ‘iboti, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini inkor etganlik hamda fuqarolarni milliy, irqiy, etnik yoki diniy mansubligiga qarab kamsitganlik va diniy tashkilot tomonidan o‘zining ustavida nazarda tutilmagan faoliyat bilan shug‘ullanganlik uchun tegishli javobgarlik belgilash nazarda tutilmoqda.

Ushbu qonun qabul qilinishi natijasida jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni yanada mustahkamlash, dunyoviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda xotin-qizlar huquqlarining ishonchli himoyasiga erishilishi senatorlar va yig‘ilish ishtirokchilari tomonidan qayd etildi.

## Pedagoglarni ijtimoiy himoya qilish kafolatlari kuchaytiriladi

Senatning Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi majlisida “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi hamda “Farmatsevtika faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonunlar tahlildan o‘tkazildi.

Pedagogning jamiyatdagi maqomini yuksaltirishga qaratilgan qonunda pedagoglar kasbiy faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq huquqlari belgilab qo‘yilmoqda. Unga ko‘ra, kasbiy faoliyatni bajarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish, qonunchilik hujjatlariga muvofiq ijodiy ta’til olish, ta’lim tashkilotini boshqarishda va uning faoliyati bilan bog‘liq masalalar muhokamasida ishtirok etish kafolatlanayotir.

Shu bilan birga, pedagogning o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi chog‘ida boshqa vazifalarni bajarishga, xususan, pedagogning kasbiy faoliyatiga aralashish, kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga, jumladan, kuz-qish davrida va ishlanmaydigan bayram kunlarida ta’lim tashkilotida navbatchilikka jalb etish taqiqlanayotir. Eng muhimi, pedagogning mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha qoidalar mustahkamlanib, ularni ijtimoiy himoya qilish kafolatlari ko‘rsatilmoqda.

Majlisda senatorlar “Farmatsevtika faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonunni ham dastlabki tarzda muhokama qildilar.

Ushbu qonun bilan “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining klinik tadqiqotlarida sog‘lom shaxslarning ixtiyoriy ravishda ishtirok etishi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun dori vositalarining, tibbiy buyumlarning va tibbiy texnikaning ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomalarining amal qilish muddatlarini o‘zgartirish uchun imkoniyatni nazarda tutuvchi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Bundan tashqari, “Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to‘g‘risida”gi Qonunga donor qoni va uning tarkibiy qismlaridan farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan farmatsevtika tashkilotlariga donor qoni va uning tarkibiy qismlarini xususiy tartibda to‘plashni, tayyorlashni, qayta ishlashni hamda saqlashni amalga oshirishga ruxsat beradigan o‘zgartirishlar kiritilyapti.

## Qiyoslash xizmatlari va metrologiya tekshiruvi

“O‘lchash vositalarini qiyoslashdan o‘tkazish sohasiga xususiy sektor jalb qilinishi munosabati bilan “Metrologiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish haqida”gi qonun Senatning Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi majlisida ko‘rib chiqildi.

Mazkur hujjat bilan o‘lchash vositalarini qiyoslash xizmatlari respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlari hisoblanmaydigan yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari tomonidan ko‘rsatilishi, o‘lchash natijalari davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan o‘lchash vositalari turkumlarining ro‘yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi, shuningdek, metrologiya tekshiruvi hamda davlat metrologiya nazorati funksiyalarining ajratilishi nazarda tutilmoqda.

Qonunda metrologiya tekshiruvi O‘zbekiston milliy metrologiya instituti, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining metrologiya xizmatlari hamda yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari tomonidan ushbu qonunda belgilangan vakolatlar doirasida amalga oshirilishi ko‘zda tutilyapti.

Shuningdek, majlisda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun ham qizg‘in muhokamaga sabab bo‘ldi.

Ta’kidlanganidek, mazkur hujjat bilan sun’iy suv obyektlarining suvidan maxsus foydalanish yoki iste’moli uchun ruxsatnoma suv iste’molchilari uyushmalariga, shuningdek, boshqa suvdan foydalanuvchilar va suv iste’molchilariga qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv obyektlari suvidan foydalanishga ruxsatnoma tumanlar irrigatsiya bo‘limlari tomonidan berilishi belgilanayotir.

Bundan tashqari, majlisda Navoiy va Buxoro viloyatlarida aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta’minlash, shuningdek, tuproq unumdorligini oshirish hamda uning degradatsiyasiga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar holatini o‘rganish yakunlari obdan tahlil qilindi.

## Voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligi yanada liberallashtiriladi

Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi majlisida ham “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi, “Soliq va byudjet qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi, “Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlik yanada liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonunlar muhokama etildi.

Xususan, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun pedagog xodimning jamiyatdagi maqomini yuksaltirish, uning faoliyati bilan bog‘liq huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish va kasbiy kamol topishi uchun sharoit yaratish hamda huquqiy kafolatlarini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgani alohida ta’kidlandi.

Qonunda pedagoglar kasbiy huquqlari, shu bilan birga, pedagogning o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi chog‘ida taqiqlanadigan holatlar ham ko‘rsatib o‘tilmoqda. Xususan, ta’lim oluvchilarning bilimlarini to‘g‘ri va xolis baholashga ta’sir ko‘rsatish taqiqlanyapti.

Qonunda pedagogik etika qoidalari, pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, attestatsiya va ularning malaka toifalarini berish bo‘yicha qoidalar ham kiritilmoqda.

“Soliq va byudjet qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun muhokamasida esa Byudjet kodeksi hamda boshqa yana bir qator qonunlarga muhim o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilayotgani aytib o‘tildi.

“Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlik yanada liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun muhokamasi jarayonida u 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga doir davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgani aytib o‘tildi. Yangi qonun bilan 18 yoshga to‘lguniga qadar sodir etgan o‘ta og‘ir bo‘lmagan jinoyati uchun jazoni o‘tab bo‘lgan shaxs sudlanmagan, deb hisoblanishi belgilanmoqda.

Ushbu qonun voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligini yanada liberallashtirishga xizmat qiladi va o‘n sakkiz yoshga to‘lguniga qadar sodir etgan jinoyati uchun jazoni o‘tab bo‘lgan shaxsga hayotini sudlanganlik tamg‘asidan xoli tarzda davom ettirishi uchun sharoit yaratadi.

*Qo‘mitalar majlislarida ko‘rib chiqilgan qonunlar va boshqa masalalar qizg‘in muhokama etilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.*

**“Xalq so‘zi”.**

# KELAJAK AVLOD OLDIDAGI MAS’ULIYAT

*Bugungi kunda dunyo aholisi iqlim o‘zgarishi,atrof-muhit ifloslanishi va tabiiy resurslarning kamayishi bilan bog‘liq bir qator muammolarga duch kelmoqda. Shu bois sayyoramizning barqaror rivojlanishi va kelajak avlodlar uchun saqlanishini ta’minlash bo‘yicha qayta tiklanadigan yangi energiya manbalarini o‘rganish va joriy etish juda muhim.*

**Fikr**

Mamlakatimiz bu borada bir qator afzalliklarga ega. Bunday energiya manbalarini rivojlantirish iqtisodiy o‘sishni va ish o‘rinlarini yaratishni rag‘batlantiradi. Zero, qayta tiklanadigan energiya tizimlarini ishlab chiqish, o‘rnatish va texnik xizmat ko‘rsatish malakali kadrlarni talab qiladi.

Shuning uchun ushbu sohaga investitsiyalarni yo‘naltirish iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini rivojlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, ishsizlikni kamaytirish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotir. Jumladan, oxirgi besh yilda umumiy quvvati 7 047 megavatga teng bo‘lgan quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo‘yicha xalqaro kompaniyalar bilan 9 mlrd. AQSH dollarilik to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar kiritish sharti bilan bitimlar imzolandi.

Olib borilayotgan sa’y-harakatlar natijasida bugungi kunda 2 ta, jami 200 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi, 2023-2024-yillarda umumiy quvvati 2 797 MVt bo‘lgan 7 ta quyosh hamda shamol elektr stansiyasi foydalanishga topshiriladi.

Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan respublikamiz hududlarida to‘siqsiz foydalanish imkoniyatlari yaratilmoqda. Misol uchun, 2025-yilda Buxoro viloyatining Peshku va G‘ijduvon tumanlarida har birining quvvati 500 MVt bo‘lgan 2 ta hamda 2026-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasida umumiy quvvati 1 600 MVtga teng bo‘lgan 4 ta shamol elektr stansiyasi ishga tushiriladi.

Hozirgi vaqtda Qoraqalpog‘istonda 200 MVt quvvatli shamol elektr stansiyasini qurish bo‘yicha tender davom etmoqda. Bundan tashqari, 2023-yil yakuniga qadar umumiy quvvati 1,8 gigavatga yaqin kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Tizimli ishlarning amalga oshirilishi natijasida 2026-yilga borib, O‘zbekistonda umumiy quvvati 8 ming megavatdan ortiq bo‘lgan quyosh va shamol elektr stansiyalari, 868 MVt quvvatga ega yangi gidroelektr stansiyalari ish boshlaydi.

Shu bilan birga, energetika sohasida ishlab chiqarish ko‘lami ortib, pirovardida yurtimizning eng olis va chekka hududlariga ham elektr energiyasi yetib boradi. Aholi elektr toki bilan uzluksiz ta’minlanadi. Qisqasi, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni ko‘paytirish nafaqat energiya zarurati, balki kelajak avlod oldidagi mas’uliyatdir. Bu tabiatni asrab-avaylash, atrof-muhitni toza va sog‘lom qilish imkonini beradigan barqaror rivojlanish sari qadamdir.

Qayta tiklanadigan energiya manbalarining joriy etilishi ishonchli energiya ta’minotini ta’minlaydigan, zararli chiqindilarni kamaytiradigan va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadigan muvozanatli energiya aralashmasiga erishishga imkon beradi. Shunday ekan, imkoniyatlardan samarali foydalanib, qayta tiklanadigan energiya manbalarini faol qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish zarur.

**Farhod ZAYNIYEV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

# YO‘LOVCHI TASHISH XO‘JALIGI ISTIQBOLLARI

*Samarqandda Yo‘lovchi tashish xo‘jaligi komissiyasining 31-chaqirig‘i o‘z ishini boshladi. Ushbu xalqaro konferensiyada MDHga a’zo mamlakatlar temir yo‘llarining yo‘lovchi tashish xo‘jaligi oldida turgan dolzarb masalalar muhokama qilinmoqda.*

**Anjuman**

Uch kun davom etadigan ushbu anjumanda “Express International” yo‘lovchi poyezdlarning xalqaro integratsion tizimini yaratish va uning vazifalarini amalga oshirish, joriy yilning 8 oyi mobaynida xalqaro yo‘lovchi tashishni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan chora-tadbirlar hamda Kengash ishchi organlarining oldindan tayyorlagan hujjatlari, qarorlari, murojaatlar loyihalari ko‘rib chiqilyapti.

Mutaxassislar tomonidan sohani istiqbolli, zamonaviy loyihalar asosida rivojlantirish, bu borada o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish, yo‘lovchilarga tezkor, qulay elektron xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirildi.

MDH hamda Boltiqbo‘yi mamlakatlarida temir yo‘l yo‘lovchilariga patta sotish, joylarni band qilish bilan bog‘liq barcha operatsiyalar “Express-1”, “Express-2” va “Express-3” elektron tizimlari orqali amalga oshirilib kelingan. Hozirda “Express-3” tizimidan foydalaniladi. Bu tizim taraqqiyotning o‘zgarishi tufayli zamonaviylashtirishni talab qilmoqda. Shundan kelib chiqib, yig‘ilishda temir yo‘l yo‘lovchilariga qulaylik yaratish, bu borada xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, “Express” tizimini qayta tashkil etishga e’tibor qaratilmoqda.

Milliy “Express” tizimi raqamlashtirilishi va “Express International” tizimiga integratsiya qilinishi yo‘lovchilarga birmuncha qulaylik yaratadi. Hozirda barcha xarid qilinayotgan chiptalarning salkam 50 foizi elektron shaklda sotilyapti. Bu ko‘rsatkichni kelgusi yili yanada oshirish rejalashtirilgan.

— “Express-3” tizimining xizmat qilish davri tugab boryapti. Biz hammamizga ma’qul bo‘lgan “Express International”ning yangi avlodini ishga tushirmoqchimiz, — deydi “Express” ilmiy markazi direktori Andrey Komissarov. — Bu tizim zamonaviy bo‘lib, yo‘lovchilarga tezkor chipta sotish, MDH hududidagi reyslar to‘g‘risida ko‘proq ma’lumotlar berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tizim Rossiyada ishlayapti, o‘zbekistonlik hamkasblarimiz ham bizni qo‘llab-quvvatlashmoqda. Yaqin yillarda MDH mamlakatlarida bu zamonaviy tizim faoliyati yo‘lga qo‘yilsa, natijasiga yo‘lovchilar tezda guvoh bo‘ladi, deb o‘ylayman.

Muloqot yakunlari bo‘yicha xalqaro va ichki qatnovli poyezdlar uchun MDH hududida elektron sayohat hujjatlarini amalga oshirishni rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘riladigan bayonnoma imzolanadi.

Ushbu anjumanda, shuningdek, MDH, Gruziya, Latviya, Litva, Estoniya davlatlarining temir yo‘l ma’muriyatlari o‘rtasida xalqaro yo‘lovchi tashish to‘g‘risidagi bitimning ayrim normalarini qo‘llash xususiyatlari hamda xalqaro transport normalarining rivojlanishiga hissa qo‘shadigan davlatlararo yo‘lovchi tariflari to‘g‘risidagi masalalar ko‘rib chiqiladi.

**Abdulaziz YO‘LDOSHEV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# O‘zbek olimining kitobi AQSHda chop etildi

*Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo‘shma Shtatlariga amaliy tashrifi kunlarida o‘zbekistonlik taniqli fiziolog olim,Jahon fiziologlari jamiyatining akademigi Bakriddin Zaripovning yangi kitobi okeanortida chop etildi.*

**Mutolaa**

“Integral ovqatlanish bo‘yicha qo‘llanma” (“Integral Nutritional Guide”) kitobi Nyu-Yorkdagi “Vet-Vittels” kompaniyasi prezidenti, biologiya fanlari doktori, Harvard universiteti professori, akademik Efroim Gurman bilan hammualliflikda yozilgan bo‘lib, u AQSHning “Xlibris” nashriyoti tomonidan ingliz tilida chop qilindi. Bu — mamlakatlarimiz o‘rtasidagi aloqalar nafaqat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarda, balki madaniy-ma’rifiy, ilm-fan yo‘nalishlarida ham tobora mustahkamlanib borayotganining yorqin dalili.

“Integral ovqatlanish bo‘yicha qo‘llanma”ni to‘g‘ri ovqatlanish, inson salomatligini mustahkamlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash borasidagi g‘oyalar ensiklopediyasi, deyish mumkin. Zero, sodda til, xalqona uslubda yozilgan kitob har bir kishiga to‘g‘ri ovqatlanish orqali hayotdagi o‘z maqsadlariga erishish uchun eng yaqin maslahatchi bo‘la oladi. Chunki mualliflar ma’lumotlarni murakkab ilmiy terminlardan imkon qadar qochib, o‘quvchilarning barcha qatlami uchun tushunarli bo‘lgan usulda taqdim etishgan. Shu bois yangi asarning elektron va bosma nusxalariga bo‘lgan talab hozirdanoq oshib ketdi. Ayni paytda kitob AQSH va ingliz tilli davlatlarda sotilayotgan bo‘lsa, bir qancha nashriyotlar uni ispan, portugal, xitoy tillariga tarjima qilish bo‘yicha takliflarini berdi.

Bu bejiz emas, albatta. Negaki, sog‘lom va to‘g‘ri ovqatlanish davrimizning eng dolzarb muammolaridan biriga aylangan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti prognoziga ko‘ra, 2030-yilga borib, dunyo aholisining qariyb 45 foizi semizlikdan aziyat chekishi mumkin.

Fiziolog olimlar yangi asarda ushbu global muammoga sog‘lom turmush tarzi orqali samarali yechim topish mumkin, degan g‘oyani ilgari surishmoqda. Shundan kelib chiqib, sog‘lom va to‘g‘ri ovqatlanish bo‘yicha mutlaqo ohorli tavsiyalar berishadi. Unga ko‘ra, kundalik yog‘ iste’moli kattalar ratsionidan joy olgan mahsulotlar umumiy quvvatining 30 foizidan oshmasligi kerak. Bundan tashqari, shakar tanovulini cheklab, uning o‘rnini sifatli uglevodlar iste’mol qilish orqali to‘ldirish mumkin. Inson organizmi uchun zarur uglevodlarni, birinchi navbatda, meva-sabzavot, don va dukkakli mahsulotlardan olishi salomatlik uchun koni foyda. Buning uchun kattalar kuniga kamida 400 gramm meva-sabzavot yeyishi tavsiya etiladi.

Mualliflarning ta’kidlashicha, oziqlanish barcha tirik mavjudotlarga xos bo‘lgan murakkab hodisadir. Shu bois u ko‘plab mutaxassislar tomonidan o‘rganiladi. Bu borada chop etilgan aksariyat kitoblar ilmiy adabiyotlar tasnifiga kirganligi tufayli tor doiradagi mutaxassislar e’tiborini jalb qila olgan xolos.

— Ana shu jihatlarni inobatga olgan holda biz masalaga boshqacha yondashdik, — deydi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti professori, akademik B. Zaripov. — Oziqlanishning inson fiziologiyasidagi ahamiyati o‘rganilib, to‘g‘ri ovqatlanish va uning sog‘liqni saqlashdagi rolini ochib berishga harakat qildik. Ilmiy xulosalarga tayangan holda foydali tavsiyalar berildi. Zotan, to‘g‘ri ovqatlanilsa, har qanday taom inson uchun shifodir. Buning aksi esa taom qanchalik tansiq bo‘lmasin, organizm uchun ziyon. Biz yangi kitobimiz bilan to‘g‘ri ovqatlanish orqali sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishga harakat qilmoqdamiz.

Shu jihatdan olib qaraganda, ushbu kitob O‘zbekistonda aholi orasida yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va jismoniy faollik darajasini oshirish maqsadida hayotga tatbiq qilinayotgan “To‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzi” umummilliy harakati xalqaro darajada qanot yozishiga katta turtki bo‘ladi, desak, mubolag‘a emas. Sababi undagi tavsiyalar umummilliy harakat tartib-taomillariga hamohang bo‘lib, aholi, ayniqsa, yoshlar, ayollar va keksalar orasida sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik targ‘ib qilingan. Buning hisobiga yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olish mumkinligi, o‘z navbatida, zararli odatlar va nosog‘lom turmush tarzining zararli oqibatlari keng tushuntirilgan.

E’tiborlisi, kitob mualliflarining tavsiyalari sog‘lom bo‘lish uchun qattiq parhez qilish kerak, degan an’anaviy qarashlardan ancha uzoq bo‘lib, to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarziga odatlanishga chaqiriladi. Buning salomatlik uchun foydali xususiyatlari ilmiy jihatdan ochib beriladi. Xususan, yoshga




qarab ovqatlanish, tashqi muhitning ovqatlanishga ta’siri, gormonlar orqali ovqat hazmining boshqarilishi, mikrobioma, kosmonavtlar va astronavtlarda individual ovqatlanish, muvofiqlashtirilgan parhez mavzulari qamrab olingan. Bundan tashqari, etnik ovqatlar va uning fiziologik kelib chiqish sabablari, pazandalik, oziq-ovqat tarkibi va ishtaha masalalari ilmiy tadqiq qilinib, bu borada o‘ta foydali tavsiya va ko‘rsatmalar berilgan.

Shu ma’noda, O‘zbekiston va AQSH fiziolog olimlari hamkorligida yaratilgan “Integral ovqatlanish bo‘yicha qo‘llanma” keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan bo‘lib, u o‘z sog‘lig‘iga befarq bo‘lmagan insonlarning eng sevimli kitobiga aylanishiga shubha yo‘q.

**“Xalq so‘zi”.**

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2023-yil 27-sentabr

O‘zbekiston xalq shoiri Rauf Parfi tavalludining 80 yilligi

# «BU QUSHCHA SAYRAYDI MENING RUHIMDA...»

*O‘zbekiston xalq shoiri Rauf Parfi umri davomida so‘z va adabiyot bilan, millat dardi bilan yashab o‘tgan ijodkorlardan, desak, mubolag‘a emas. Uning she’riyati, har bir so‘zi, fikriyu g‘oyasi ozod Vatan sog‘inchiga yo‘g‘rilgan, millat baxtini orziqib kutgan odamning tilidandir.*

*Ijodkor hayoti turli qiyinchiliklarga, sinovlarga boy, bu o‘tkinchi og‘riqlarni esa asl yozarmangina mahv etishi bor gap. Rauf Parfi bu og‘riqlar jarayonida she’r yaralishini bilar edi, balki shuning uchun to‘siqlar, tashvishu azoblar qarshisida hech qachon cho‘chimagan, qaytanga ularni ko‘ngliga mehmonday kutib olgan, siylagan va so‘z aytdirgan.*

Rauf Parfi — o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos maktab yarata olgan shoir. U xalqimizning yuksak milliy ruhiyatini o‘z she’riyati orqali tanish va tanitish uchun olis yo‘lga chiqqan, hormay-tolmay borayotgan yo‘lovchidir. Bu yo‘lovchining bosib o‘tgan yo‘lini o‘quvchilar yaxshi bilishadi, shoir kitoblarini qo‘ldan qo‘ymay mutolaa qilishadi, uning nomini, so‘zini, har bir misrasini hamisha yuragida asrashadi.

Rauf Parfi Usmon Nosir va Oybek she’riyati zaminida o‘z uslubini yaratdi. Uning besh, olti qatorli she’rlarida birinchi va oxirgi misralarning takrorlanishi o‘ziga xos jaranglaydi. Zotan, she’riyatda o‘z uslubini yarata olmay, soya yanglig‘ birovlarga ergashib she’rbozlik qilib yurgan shoirlar qancha?! Adabiyotga o‘z uslubini adabiy taqdim etgan sara shoirlar qatorida esa Rauf Parfi ham tilga olinishi, shubhasiz.

Adabiy usul shoir she’rlarining ruhi bilan birga davom etadigan birlikka o‘xshaydi. Bu ijodkor satrlari zamiridan qalqib chiqaveradi. Uslub ba’zan eskirishi, o‘quvchining ehtimol, me’dasiga tegishi mumkin. Rauf Parfi esa ifoda tarzida, so‘z aytish usulida, tashbeh va obrazlar ko‘lamida shunday bir uslubga ega bo‘ldiki, mana, ikkinchi bir asrda ham uning asarlari o‘quvchining badiiy chanqog‘ini bosishga to‘laqonli xizmat qilmoqda.

Rauf Parfi uslubini jonlantirib ko‘rsatadigan jihatlar — bu shoir she’riyatining ramzlarga, tashbehlarga va obrazlarga boyligidir.

Adabiyotda oqimlar, syujetlar, motivlar va kayfiyatlar o‘zgarishi mumkin. Biroq obraz muqim qoladi, o‘zgarmaydi. Ulug‘lar ta’biri bilan aytsak, obraz — she’riyatning qonidir.

Rauf Parfi she’riyatida obraz ko‘pgina holatlarda ramziy mazmun kasb etadi. Shoirning har bir she’rida obrazlar o‘ziga xos tarzda ifodalanishi bilan birga ma’lum bir xarakterni ochib beradi. U tosh haqida yozadimi (“Suv ostida yaltiraydi tosh”), bulut haqidami (“Kulrang bulut kezinadi jim”), yomg‘ir (“Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar”) yoki qush haqida yozadimi (“Bir qushcha derazam yonida”), ichki nigohi orqali mukammal bir obraz yaratadiki, bu o‘quvchining ichki dunyosiga, hissiy olamiga chizib qoldirilgan suvratga mengzaydi.

Mana shoirning mashhur she’ri:

***Bir qushcha derazam yonida***
***O‘tirar parishon va g‘arib.***
***Yig‘laydi ko‘zlari yonadi,***
***Ko‘zlari ikkita marvarid.***

***Bir ajib navoga o‘xshaydi,***
***Shoirga o‘xshaydi bir hassos.***
***Miskin soz chalmoqqa u shaydir,***
***Dardiga bordir-ku bir asos.***

***Men unga qarayman ohista,***
***Men qushcha holiga yig‘layman.***
***Va lekin bilmayman, ne istar,***
***Bilmayman, hech qachon, bilmayman...***

“Bir qushcha” — ehtimol, lirik qahramonning yig‘layotgan baxtidir, balki baxtsizligidir. Ehtimol, bu dunyodagi mangu izlab yurgan savollariga bera olmayotgan, lekin ichini to‘ldirib turgan javoblaridir. “Bir qushcha” shoirning nihoyatda go‘zal poetik topilmasi. Bu she’r Rauf Parfi xazinasida yarqirab turgan olmosga o‘xshaydi. Bu xazinaga kirgan borki, ushbu she’rga ko‘z olaytiradi. Chunki u hammaning ichidagi iztirob va shodlik o‘rtasidagi kurashning yarim mistik ko‘rinishidir.

“Shoirga o‘xshaydi bir hassos”, deydi ijodkor. Demak, bu she’r — shoir ichki olamining, o‘sib borayotgan iztirobining, hayrat yuqtirayotgan qayg‘uning ramzi.

Rauf Parfi — ana shunday qalamining uchida o‘tli tuyg‘ularni ko‘tarib yuradigan shoir. Shunday xulosaga kelish mumkinki, shoir yaratgan obrazlar xarakterining kuchliligi va mukammalligi bilan baland pardalarga yetadi va quyuq tasvirlari bois adabiyotning oltin javonidan joy egallaydi.

Yig‘layotgan ikkita marvaridning yonib turishi benihoya baland darajadagi metaforadir. Shoir bu yerda metaforik cho‘qqiga chiqa olgan. Qayg‘uning, mavhum iztirobning, tushuniksiz dardning shu qadar klassik darajadagi ifodasi bo‘lishi mumkinligini,



dard ham bu qadar go‘zal bo‘lishini ushbu she’r ifodalab turganga o‘xshaydi. To‘g‘ri, shoirning “Daryo mavjlariga yozilmish g‘azal” deb boshlanuvchi she’rida ruhiy va kayfiyat jihatdan o‘xshashlik bordek.

***Daryo mavjlariga yozilmish g‘azal,***
***Maysalar egilib o‘qiydir kitob.***
***Shodlanib xandalar otar bir lahza,***
***Bir lahza oh tortib qo‘yadi oftob.***

***Bir tirik nafosat borliq, jahonda,***
***Qaltirab porlaydi shu’laga o‘xshab.***
***Bir qushcha sayraydi mening ruhimda,***
***Men sening ismingni bilmayman, qushcham...***

Yuqorida biz tahlilga tortgan she’r bilan ushbu she’r o‘rtasida shakliy, fikriy, ruhiy vobastalik bordek. Biroq garchi kayfiyat va ruhiyatda yaqinlik bo‘lsada, birinchi va ikkinchi she’r bir-biridan tubdan farqlanadi. Birinchi she’r mutlaqo lirik hikoya, inson ichki olamining voqeaband portreti. Unda holat, kayfiyat, ruhiyat, manzara — hammasi-hammasi biri ikkinchisining ichiga kirib, singishib ketganga o‘xshaydi. She’riy qatorlar, tashbehlar o‘rtasida irsiy belgilar mavjuddek taassurot qoldiradi. Birinchi she’rda ichkarida turib ruhiy manzaraga ko‘chib o‘tilgan bo‘lsa, ikkinchi she’r tabiiy manzara bilan boshlanib, oxiriga kelganda individuallashadi. Bu ikki she’r ana shu poetik xususiyatlari bilan bir nuqtada ham birlashib, ham ajrashib ketadi. Nima bo‘lganda ham ushbu asarlar bir paytning o‘zida ijtimoiy va botiniy hayot o‘rtasidagi zumrad bir ko‘prikdan o‘tgan hissiy tafakkur namunasi o‘laroq yodimizga o‘rnashadi.

Ma’lumki, Rauf Parfi she’rlarida turfa xil ayollar ismlari bilan bog‘liq she’rlarni kuzatish mumkin. Dilorom, Muhabbat, Barnobonu va Laylo ismlarini tilga olish, kifoya. Shular orasida “Laylo” she’ri alohida e’tiborni tortadi. Rauf Parfi butun kitobxonlar orasida mashhur “Laylo”si yaralgunga qadar ushbu she’r motivida bir qancha asarlar yaratdi.

Mashhur “Laylo”si esa 1963-yilda yozilgan. Mana, shoirning “Sabr daraxti” kitobidan o‘rin olgan o‘sha she’ri:

***Balki o‘chgan edim yodingdan,***
***Shirin xayolingni buzdimmi!***
***Laylo, Laylo sening yoningda,***
***Yaproq kabi ko‘rdim o‘zimni,***
***Shirin xayolingni buzdimmi?***

***Seni o‘ylab kelmaydir uyqu —***
***Qora tunning o‘zga sehri bor.***
***Tushlarimda topay deb gulro‘***
***Men uxlarman mangu, ehtimol.***
***Go‘zal tushlar tilayman, Laylo...***

***Yana paydo bo‘lding yo‘limda,***
***Yana yo‘llaringda bo‘zladim.***
***Bechora qalb sening qo‘lingda,***
***Ko‘zlaringda mening ko‘zlarim.***
***Nechun paydo bo‘lding yo‘limda?..***

Bu she’rning kitobga kiritilgan mumtoz ko‘rinishi. Albatta, u taniqli hofiz Dadaxon Hasan ijrosida bundan o‘zgacha ko‘rinish kasb etgan. “Yaproq kabi ko‘rdim o‘zimni” satri o‘rniga “Bir dam ko‘rmoqchiydim o‘zimni”, “Yana paydo bo‘lding yo‘limda” satri o‘rniga esa “Yana paydo bo‘ldim yo‘lingda” satrlari bilan ijro etilgan. Shoirning tahrirda kiritgan so‘zlari she’rning badiiy emotsionalligini yanada oshirgan. Fikr va tuyg‘u uyg‘unligini ma’lum bir shaklga keltirgan.

Laylo — Rauf Parfi she’riyati uchun faqat yor vositasi bo‘la olmaydi. Ehtimol, diyor, o‘zlikni izlash, hamsuhbat, hamdard, hammaslak, hamfikr bir hamrohdir. “Laylo” — muhabbat haqidagi, sassiz og‘riq, javobsiz faryod haqidagi mumtoz bitik. Bu she’r muhabbatga yo‘liqqan odamning dard chekishi uchun maxsus bir yo‘riqnomaga o‘xshaydi.

Umuman olganda, Rauf Parfi har bir she’rida qalb rozlarini, o‘kinchlar, iztiroblarni quyuq ranglar vositasida tasvirlay olgan. Shu bois bu asarlarda sokin pafos, mahzun intonatsiyaga duch kelasiz. Ruhning bezovtaligi, abadiy yolg‘izlik ko‘rinishidagi iztirobparastlik, Yaratgan va lirik qahramon muloqotidagi g‘amnishinlik, o‘zni izlash yo‘lidagi abadiy tushkunlik shoir she’riyatida mahzunlikning ma’lum bir ko‘rinishi sifatida keladi.

Rauf Parfi qoldirgan adabiy obidalar hali uzoq yillar o‘zining ma’rifiy go‘zalligi, ruhiy tarovati, ma’naviy muhofazasi bilan o‘zbek va umumshe’riyat o‘quvchilariga xizmat qilishda davom etadi. U adabiyot uchun she’rning ruhiy formulasi o‘laroq odim otishda davom etadi.

**Go‘zal MATYOQUBOVA,**
**O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti.**

## Bandlik

# DUNYO BOZORIDA XARIDORGIR LIBOSLAR

*Dehqonobodlik Mavluda Mengliyeva yoshligidan tikuvchilikka qiziqib, shu hunarni puxta o‘rgandi. Yurtimizda yoshlar uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlar uni ham chetlab o‘tmadi.*

Gap shundaki, joriy yilda tuman markazida “Dehqonobod tekstil” korxonasi ish boshladi. Bu esa xotin-qizlar bandligini ta’minlashda ayni muddao bo‘ldi. Ayni paytda Mavluda Mengliyeva va chevar hamkasblari tikkan turli kiyim-kechaklar dunyo bozorida o‘z o‘rnini topayotir.

Ta’kidlab o‘tish joiz, “Dehqonobod tekstil” korxonasi joriy yilda tumanda ro‘yobga chiqarilgan eng yirik loyihalardan biri hisoblanadi. Ushbu zamonaviy korxonada Turkiya texnologiyasi asosida yiliga qariyb 1,5 mln. dona erkaklar, ayollar va bolalar kiyim-kechaklari tayyorlanadi. Bu faoliyat ortidan esa hududdagi 500 nafar xotin-qizning doimiy ish bilan ta’minlanishi ko‘zda tutilgan.

— Korxonamiz “Zarafshon tekstil” korxonasi tasarrufida barpo etilgan, — deydi “Dehqonobod tekstil” korxonasi bosh texnologi Nejme Degermani. — Yirik tekstil korxonalardan hisoblanuvchi “Zarafshon tekstil” shu vaqtga qadar o‘nta hududda o‘z filiallarini ochgan. “Dehqonobod tekstil” esa navbatdagisi bo‘ldi.

Turkiyalik mutaxassisning qo‘shimcha qilishicha, ayni vaqtda korxonada oyiga 170 mingga yaqin mahsulotlar tayyorlanmoqda. Ularning asosiy qismi Yevropa davlatlariga eksport qilinayotgan bo‘lsa, qolgani ichki bozorga yo‘naltirilyapti. Bu faoliyat ortidan esa 375 nafar kishining doimiy ish bilan bandligi ta’minlangan.

Darvoqe, yana 175 nafar chevar uchun tikuv mashinalari olib kelib o‘rnatildi. Shu bois qo‘shimcha ishchilar qabul qilinyapti. Demak, hududda aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlar yanada faollashadi.

**Jahongir BOYMURODOV (“Xalq so‘zi”).**

REKLAMA

## INVESTOR VA QURILISH TASHKILOTLARI RAHBARLARI DIQQATIGA!

***O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi PQ-4343-sonli qaroriga muvofiq, shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarning zamonaviy talab hamda arzon uy-joylar qurish va berish hisobidan ularni rag‘batlantirish hamda ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-oktyabrdagi 865-sonli qarori qabul qilingan. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining professor-o‘qituvchi va xodimlariga ko‘p kvartirali uylarni “tayyor holda topshirish” shartlari bilan qurish bo‘yicha investorlar yoki qurilish tashkilotlari mutasaddilari hamkorlikka taklif etiladi. Tanlovda qatnashish istagida bo‘lgan tashkilot mutasaddilaridan quyidagilar talab etiladi:***

investor yoki qurilish tashkilotining nizomi va guvohnomasi;

investor yoki qurilish tashkilotining faoliyati haqida ma’lumot (5 yildan ortiq ishlagan bo‘lishi kerak);

xizmat ko‘rsatuvchi bank tomonidan berilgan investor yoki qurilish tashkilotining qarzdorlik masalasi bo‘yicha ma’lumotnomasi;

davlat soliq inspeksiyasi tomonidan berilgan investor yoki qurilish tashkilotining qarzdorlik masalasi bo‘yicha ma’lumotnomasi;

investor yoki qurilish tashkilotining moddiy-texnika bazasi to‘g‘risida ma’lumot;

qurilish rejalashtirilgan hududga loyiha taklifi (bosh reja, fasad, qavatlar rejasi 3D ko‘rinishda);

qurilish ishlarini olib borish, qurilish muddatlari va qurilish shartlari ko‘rsatilgan tarmoq rejasi (tasdiqlangan ko‘rinishda);

qurilgan uylardagi xonadonlarning eng kamida 50 foizini O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining professor-o‘qituvchi xodimlari va harbiy xizmatchilari uchun imtiyozli arzonlashtirilgan narxlarda sotish bo‘yicha hisoboti (tijorat taklifi).

Loyihalanayotgan ko‘p qavatli turarjoy binosiga qo‘shimcha ravishda avtomobillar turarjoyi hamda bolalar maydonchasi bo‘lishi shart.

Loyihalanayotgan ko‘p qavatli turarjoy binosining qavatlarini yer maydoni joylashgan tuman bosh arxitektori bilan maslahatlashgan holda kelishishi lozim.

Qurilishi rejalashtirilayotgan ko‘p qavatli turarjoy binosi bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlari bilan bog‘liq barcha xarajat investor yoki qurilish tashkilotining o‘z mablag‘lari hisobidan bo‘ladi.

Mazkur shartlar bo‘yicha hamkorlik qilish istagidagi investor yoki qurilish tashkilotlari mutasaddilari 2023-yilning 10-oktyabriga qadar tanlov yuzasidan qo‘shimcha ma’lumot olish uchun quyidagi manzilga murojaat qilishlari mumkin.

**Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Intizor ko‘chasi, 68-uy, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi.**
**Telefonlar: 71-265-13-53, 71-265-15-50.**
**Qurilishi rejalashtirilayotgan obyekt manzili:**

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi tasarrufida bo‘lgan, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Gulbadanbegim ko‘chasi, 47-uyda joylashgan umumiy hajmi 0,25 gektar (2533 m2) yer maydoni.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

OLIY O‘QUV YURTIDAN KEYINGI TA’LIM INSTITUTIGA 2024-YIL UCHUN QUYIDAGI IXTISOSLIKLAR BO‘YICHA QABUL E’LON QILADI:

| № | Ixtisoslik Sh. | Ixtisoslik nomi | Doktorantura | Tayanch doktorantura | DSc maqsadli | PhD maqsadli | Stajor-tadqiqotchi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 01.01.01. | Matematik analiz | | 4 | | | |
| 2 | 05.01.06. | Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari | 1 | 5 | | | |
| 3 | 05.01.07. | Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui | | 4 | | | |
| 4 | 05.02.03. | Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari | | 6 | | | |
| 5 | 05.02.08. | Yer usti majmualari va uchish apparatlari | | 7 | | | |
| 6 | 05.08.02. | Temir yo‘llar va yo‘l xo‘jaligi | | 4 | | | |
| 7 | 05.08.03. | Temir yo‘l transportini ishlatish | 2 | 20 | | | |
| 8 | 05.08.04. | Navigatsiya va havo yo‘llari harakatini boshqarish | | 10 | | | |
| 9 | 05.08.05. | Temir yo‘llarning harakatlanuvchi tarkibi, poyezdlarni tortish va elektrlashtirish | | 17 | | | |
| 10 | 05.08.06. | G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish | 1 | 12 | | | |
| 11 | 05.09.02. | Asoslar, poydevor va yer osti inshootlari. Ko‘prik va transport tonnellari. Yo‘llar, metropolitenlar | 1 | 28 | | 2 | |
| 12 | 05.09.05. | Qurilish materiallari va buyumlari | | 6 | 1 | 4 | |
| 13 | 05.09.07. | Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi | | 4 | | | |
| 14 | 05.10.01. | Mehnatni muhofaza qilish va inson faoliyati xavfsizligi | | 3 | | | |
| 15 | 08.00.03. | Sanoat iqtisodiyoti | | 14 | | | |
| 16 | 08.00.11. | Marketing | | 4 | | | |
| 17 | 08.00.13. | Menejment | | 6 | | | 2 |
| 18 | 09.00.04. | Ijtimoiy falsafa | | 6 | | | |
| 19 | 10.00.06. | Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik | | 8 | | | 3 |
| | | **Jami** | 5 | **168** | **1** | **6** | **5** |

**Talab qilinadigan hujjatlar:**

**Tayanch doktoranturaga:**

– ariza;
– qisqacha biografik ma’lumotnoma;
– mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
– oliy ta’lim muassasasi magistraturasi diplomi, oliy ma’lumot (mutaxassislik dasturlari bo‘yicha) to‘g‘risidagi diplom nusxasi;
– nashr etilgan ilmiy ishlar ro‘yxati, shuningdek, ularning nusxalari (kamida uchta);
– yetakchi olimlardan birining ilmiy maslahatchi sifatida belgilash yuzasidan yozma roziligi;
– xorijiy tillarni bilish bo‘yicha milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikati;
– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadi.

**Doktoranturaga:**

– ariza;
– qisqacha biografik ma’lumotnoma;
– mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi;
– oliy ma’lumot, fan nomzodi yoxud falsafa doktori (PhD) ilmiy darajaga ega bo‘lganligi to‘g‘risidagi diplom nusxasi;
– tadqiqot mavzusi bo‘yicha ilmiy ma’ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi;
– xorijiy tillarni bilish bo‘yicha milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikati;
– nashr etilgan ilmiy ishlar ro‘yxati, shuningdek, ularning nusxalari.

Hujjatlar e’lon chiqqan kundan boshlab joriy yilning 15-oktabrigacha qabul qilinadi.

**Manzil:** Toshkent shahri, Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy, 379-xona.
**Telefonlar:** 71-299-01-89; 71-299-00-49.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 941.33 088 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 01.05 Topshirildi — 01.40 1 2 3 4 5 6